

QOVOQDOSHLAR OILASIGA MANSUB AYRIM QOVUN NAVLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yusupova A.K

Biologiya yo'nalishi o'qituvchisi

Atajanova K.S

Biologiya yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10449539>

Kalit so'zlar: karotin, vitamin, qovoq, qovun, yovvoyi, tarvuz, xomashyo, chorvachilik, ellips, gurvak, dehqonchilik, fuzarioz.

Qovoqdosh ekinlar oziq ovqat sifatida ishlatiladi va xashaklari sershira sifatida mollarga beriladi. SHu sababdan Markaziy Osiyoda va mamlakatining boshqa janubiy tumanlarida ular xalq xo'jaligi uchun katta ahamiyatga ega. Ularning oziqlik qiymati tarkibidagi uglevodlar, asosan qandlar bilan baxolanib, inson organizmi tamonidan oson xazm qilinadi. Osiyo qovunlar tarkibida 4,2 - 14 % gacha, ayrim xollarda 17 % gacha qand bo'ladi. Qovoqlar tarkibidagi qandlar esa 3 - 14 % ga yaqin bo'ladi. Bu qand miqdori o'simliklarning naviga, o'sish sharoitiga va yetishtirilgan joyiga qarab o'zgarib turadi. Janub tamonga borgan sari qovun tarkibidagi qand miqdori ortib boradi.

Qovun tarkibida S vitamini kam, biroq karotin (A vitamin manbai) ko'p bo'ladi. SHuning uchun ham tarkibida karotin ko'p bo'lgan qovoq navlari meditsenada davolash preparatlari olish uchun ishlatiladi. Qovun urug'ida 25 - 30 % gacha, qovoq urug'ida 50 % moy bo'ladi. Xozirgi kunda meditsinada qovunda jigar kasalligi va aterosklerioz davolashda tavsiya etiladi. U asab sistemasini tinchlantirishga xam ta'sir etadi. Qovoqning barcha madaniy turlari Amerikadan kelib chiqqan, shu jumladan, yirik mevali qovoq, Janubiy Amerika, qattiq po'stli qovoq - SHimoliy Amerika va musqat qovoqlari Janubiy Meksika va Markaziy Amerikadan kelib chiqqan. Qovoqning madaniy navlar eramizdan 3000 yil avval insonga ma'lum bo'lgan. Jahon bo'yicha poliz ekiladigan 2,8 - 2,9 mln hektarni tashkil etsa. SHulardan 70% - tarvuz, 20% - qovun, 10% ni qovoq ekinlari tashkil etadi. Butun dunyo bo'yicha poliz maxsulotlari yillik ishlab chiqarish ko'rsatkichi tarvuz 23 - 26 mln tonna, qovun 6,4 - 6,6 mln tonna, qovoq 4 - 5 mln tonnani tashkil etadi.

Qovun - qovoqdoshlar oilasi bodring turkumiga mansub bir yillik o't o'simliklar turi poliz ekini. Yovvoyi holda Janubi-G'arbiy Osiyo va Afrikada uchraydi. Madaniy navlarining vatani - Kichik va O'rta Osiyo (2 ming y. dan beri ekiladi). Markaziy Osiyoda qovun ekiladigan maydoni jihatidan poliz ekinlari orasida birinchi o'rinda turadi, illdizi o'qildiz, uzunligi 1 m gacha boradi. Palagi ingichka, yotib o'sadi. Juda ko'plab yon shoxlar chiqaradi. Barglari uzun bandli, palakda ketma-ket joylashgan. Gultoiji sariq, odatda, besh toj bargli, otalıkları beshta, changdonlari ikki uyali, bir uyli, ayrim jinsli. Qovun mevasining shakli turlicha (yumaloq, ovalsimon, cho'zinchoq va b.). Po'sti qalin (1,5-2 sm), o'rtacha

(1-1,5 sm), yupqa (0,5-1,4 sm), qattiq; eti juda yumshoq, yumshoq, guvrak, sersuv, sershira, qumoq, ba'zilariniki tolali, rangi oq, qizil, sarg'ish, yashilroq. Urug'i oq, och sariq va sariq. 1000 dona urug'ining vazni 30-45 g. Naviga qarab qovun vaznida eti 63-84, po'sti 10-30, urug'i va urug'tutarlari 3,1-7,7% ni tashkil etadi.

Mevasi tarkibi - 8-20% quruq modda, 18% qand (saxaroza), 0,1-0,7% kletchatka, 0,2-35,2% S, PP vitaminlari, folat kislota, kaliy, natriy, kaltsy, magniy, temir, fosfor, oltingugurt va boshqa mikroelementlar bor.

Tarvuz (*Citrullus*) - qovoqdoshlar oilasiga mansub bir va ko'p yillik o't o'simliklar turkumi; poliz ekini. Vatani-Afrika (Misr). Markaziy Osiyoda tarvuz ekiladigan maydoni jihatidan poliz ekinlari orasida qovundan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Madaniy tarvuzning xo'raki (*S. Aedulis* Pand.), xashaki (*S. Solocynthoides* Pand.) turlari, yovvoyi tarvuzning mevasi achchiq turi ma'lum. Xo'raki tarvuzning dunyo bo'yicha ma'lum bo'lgan barcha navlari 10 ta ekologik geografik guruhga bo'linadi. O'rta Osiyo tarvuzi alohida ekologik geografik guruhni tashkil etadi. Palagi 4-5 m gacha boradi, ildizi chuqur joylashgan o'q ildiz, barg qo'ltiqlaridan o'sib chiqqan jingalaklari yordamida ilashib, chirmashib o'sadi. Barg bandi uzun, barglari bir necha bo'lakchalardan iborat, rangi och yashil, oq va uzun tuklar bilan qoplangan. Otalik va onalik gullari alohida-alohida joylashgan. Asosan chetdan changlanadi. Tarvuz mevasining shakli yumaloq, ovalsimon, silindrsimon. Po'sti qalin (1,5 sm), o'rtacha (1-1,5 sm), yupqa (1 smdan kam), qattiq, eti yumshoq, sersuv, sershira, qumoq, ba'zan tolali. Etining rangi qizil, ayrim navlari malinasimon. Urug'i, oq sariq, qora, qizil, kulrang. 1000 dona urug'i vazni 40-120 g.

Mevasi tarkibi - 8,0-13,5% quruq modda, 5,8-11% qand (fruktoza; xashaki tarvuzda 3,2-5% quruq modda, 1,2-3% qand, 1kg ida 0,09 ozuqa birligi), 90% dan ko'proq suv, turli vitaminlar (B₁ B₂ PP) va minerallar, urug'ida 25-30% moy, fitin kislota bor. Tarvuz issiqsevar, yorug'sevar o'simlik, qurg'oqchilikka chdamli, urug'i tuproq harorati 14-16° da una boshlaydi. Ekilgandan keyin 5-6 kunda unib chiqadi. Tarvuzning ertapishar, o'rtapishar va kech pishar navlari bor. Ertapishar navlari 80-90, o'rtapisharlari 90-100 va kech pisharlari 110-120 kunda pishadi. Tarvuz yangiligida iste'mol qilinadi, sanoatda qayta ishlash uchun xomashyo, xashaki tarvuz chorvachilikda shirali ozuqa sifatida foydalaniladi. Tabobatda kamqonlik, jigar, buyrak, yurak-tomir kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Tarvuz pushta kengligi 280-360 sm qilib olingan jo'yakning ikki tomoniga tup orasi 70 sm qilib 4-6 sm chuqurlikda ekiladi. Uyalarga 2-3 kun ivitilgan urug'lar 3-4 tadan tashlanadi, chopiq paytida yagana qilib bittadan o'simlik qoldiriladi.

O'suv davrida qator oralari 2-3 marta yumshatiladi. Tuproq sharoitiga arab 6-8 marta suv beriladi. Tarvuz lalmikor yerlarda ham yaxshi o'sadi. Hosildorligi 200-600 s/ga. O'zbekistonda tarvuzning 15 dan ortiq navlari o'zlashtirilib, davlat reestriga kiritilgan. Bulardan eng ko'p ekiladigan navlari: Guliston, Dilnoz, Korol Kuba 92, Qo'ziboy, Marmar tarvuz, Manzur, Olmos, Surxon tongi, O'zbekiston, O'rinboy, Xait qora va b. 2000y lardan boshlab Gollandiya seleksiyasida chiqarilgan ertapishar Krisbi, Trofi, Granit 1 avlodi duragaylari ekilmoqda. Erta hosil olish uchun issiqxonalarda yoki ochiq dalada plyonka ostida ko'chatidan ekib yetishtirish mumkin.

Sariq zamcha - Urug'idan unib chiqqandan keyin 65-70 kunda hosili pishadi. Gektaridan 180-200s hosil olinadi. Bu navni uzoq joylarga olib borib bo'lmaydi, u o'z

joyida iste'mol qilinadi. SHakli yassi, har-xil kattalikda bo'ladi. Eng kattasining diametri 15-18 sm, og'irligi 0,8-2 kg. Sirti sal tilim-tilim bo'lib turadi. Po'sti yumshoq. Etining qalinligi 4-4,5 sm, juda xushbo'y, eti tig'iz, o'rtacha shirin. Rangi oq yoki och yashil. Tarkibida 6-7,5% qand, shu jumladan 4 -6% saxaroza bor, quruq moddasi 8,5-10%. Urug'xonasi uncha katta emas. U urug'donlar bilan to'lib turadi. Urug'i yirik, uzunchoq oval shaklda, oq bo'ladi.

Ola zamcha - Urug'idan unib chiqqandan keyin 65-70 kunda hosili pishadi. Gektaridan 180-200 s hosil olinadi. Uzoq joylarga olib borishga unchalik chidamli emas. SHakli yassi, mayda, diametri 12-14 sm, og'irligi 0,6-1,7 kg. Sirti sal tilim-tilim, deyarli tekis. Po'sti yumshoq, qalin. Etining qalinligi 3-4 sm, yashil yoki to'q sariq, tig'iz, qurg'oqroq. Tarkibida o'rtacha 7,5 % qand, shu jumladan 5,4% saxaroza bor, quruq moddasi 10,7%. Urug'xonasi o'rtacha kattalikda, u urug'donlar bilan to'lib turadi. Urug'i yirik cho'ziq, ovalsimon bo'ladi.

Qora gurvak - Xorazm viloyatida keng tarqalgan. Ko'karib chiqqandan keyin 85-110 kunda pishib yetiladi. Qovunning shakli turli xil bo'lib, sharsimon, ellips tarzida. Diametri 23-25 sm, og'irligi 4-8 kg gacha. Tashqi qobig'i tekis, to'rlari bir-birlari bilan siyrak tutashgan, katta qovun. Mag'zining qalinligi o'rtacha, etining qalinligi 6-7 sm, oshiq ko'kishroq, qarsillama, mazali. Qand miqdori 13-16%. Urug'i qisilgan, xonalari qalin. Bir qora gurvak 38 gr urug' beradi.

Oq gurvak - Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida qiladigan qadimiy mahalliy nav. Oq gurvakning o'suv davri 90-100 kun. Hosildorligi 240-270 sentnergacha. Qovunning ko'rinishi sharsimon, kattaligi-diametri 22-25 sm, og'irligi 4-6 kg. Tashqi ko'rinishi: qobig'i tekis, rangi oq, to'ri bir-biri bilan tutashgan, eti qalin (6-6,66 sm), mag'zi oq, yumshoq tig'izli, juda suvli, qand miqdori 16% gacha. Urug'i qisilgan, urug' xonalari etli. Bir dona qovundan 35 gr.gacha urug' chiqadi. Uzoq masofaga tashishga yaroqliligi o'rtacha, 10-15 kun saqlanadi.

Ko'k gurvak - bu erta pishar nav bo'lib, ko'karib chiqqandan keyin 85-100 kunda pishib yetiladi. Hosildorlik gektariga 350-400 s. Tashqi ko'rinishi sharsimon shaklda, yirik, diametri 20-24 sm, og'irligi 4-6kg.gacha. Rangi sarg'ish ko'k. Mag'zi qattiq emas, etining qalinligi 6-7 sm. Ochiq ko'k, yumshoq, ozgina qarsillama, juda shirin. Qand miqdori 15-16%. Urug'i yirik, oq rangda. Bir qovundan 35 gr urug' chiqadi. Uzoq masofaga tashishga yaroqsiz.

Ola gurvak - qovunning yozgi erta pishar, eng yaxshi navlaridan biri. Qoraqalpog'iston dehqonchilik ilmiy- tekshirish instituti tomonidan 1964-yilda yetishtirilgan va tumanlashtirilgan. Qobig'ining sirti tekis, kattaligi o'rtacha (24-26 sm), og'irligi 3-6 kg, ko'rinishi sharsimon shaklda, to'rlari bir-birlari bilan tutashgan, siyrak, katta, tashqi ko'rinishi qo'ng'ir, sariq. Mag'zi oq, qalinligi 6-7 sm, tig'izligi o'rtacha, juda suvli, qand miqdori juda yuqori -16% gacha. Bir qovundan 36 gr urug' olinadi. Erta pishar nav, urug'i unib chiqqandan keyin 94-105 kunda pishib yetiladi. Hosildorligi 313 sentner. Har bir tup qovun 2 dona tugadi. Uzoq masofaga tashishga yaroqliligi o'rtacha 10-15 kun.

Zar gulobi - O'rtapishar nav, urug'idan unib chiqqandan keyin 100 kunda pishadi. Palagi kuchli o'sadi, bargi yuraksimon, cheti qirrali, ko'm-ko'k rangda. Mevasi tuxumsimon, vazni 5-6 kg. Mevasining rangi sarg'ish-yashil. Mevasining tarkibida qand

miqdori 12-14%. Uzoq masofaga tashishga chidamli. Un shudring va fuzarioz kasalliklariga chidamli. Hosildorligi gektariga 30-35 t.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdolnizozov B. O., Gulimov G.S. Xorazm qovunlari. - Urganch, 2008.
2. Dushamov B.K. Qovun pashshasi va unga qarshi kurash usullari. - Xorazm, 2005.
3. Poliz ekinlarining asosiy zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurash bo'yicha tavsiyalar. - Toshkent, 2005.
4. Hakimov R. A. O'zbekiston qovun seleksiyasi. Sabzavot, poliz, kartoshka seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish texnologiyasi. - Toshkent, 2008.